

AKUSHERLIK PERITONITI

Rajabova Dildora

Osiyo xalqaro instituti, klinik fanlar kafedrasi anatomiya fan o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10408241>

Annotatsiya. Chilla davri yiringli septik kasallikkleri ichida eng xayflisi bo`lib hisoblanadi. Bu kasallikning oldini olishga qaratilgan profilaktik muolajalarini o`z vaqtida o`tqazish onalar o`limining kamayishiga olib keladi. Respublikamizda tug`ish yoshidagi ayollar orasida ekstragenital va genital kasalliklarning ko`p uchrashi homiladorlik davrida immun tizimning susayishi, infektsion agentlarga nisbatan organizmning himoya kuchlarining pasayishiga olib keladi. Buning natijasida chilla davrida EGK fonida yiringli kasalliklarning kelib chiqishi kuzatiladi, kasalikni kechikib aniqlash va davolash onalar o`limiga sabab bo`ladi.

Kalit so`zlar: peritonit, jarrohlik, tug`ruq, yo`ldosh, patologiya, bachadon, platsenta, abort, chilla, homila, barvaqt.

OBSTETRIC PERITONITIS

Abstract. Chilla period is considered the most dangerous among purulent septic diseases. Preventive procedures aimed at preventing this disease will lead to a decrease in maternal mortality. The high occurrence of extragenital and genital diseases among women of childbearing age in our republic leads to a weakening of the immune system during pregnancy, a decrease in the body's defenses against infectious agents. As a result, the occurrence of purulent diseases is observed during the cold period against the background of EGK, late detection and treatment of the disease causes the death of mothers.

Key words: peritonitis, surgery, childbirth, placenta, pathology, uterus, placenta, abortion, chill, fetus, premature.

АКУШЕРСКИЙ ПЕРИТОНИТ

Аннотация. Ознобный период считается самым опасным среди гнойно-септических заболеваний. Профилактические мероприятия, направленные на предотвращение этого заболевания, приведут к снижению материнской смертности. Высокая заболеваемость экстрагенитальными и генитальными заболеваниями среди женщин детородного возраста в нашей республике приводит к ослаблению иммунной системы во время беременности, снижению защитных сил организма против инфекционных агентов. В результате в холодный период на фоне ЭГК наблюдают возникновение гнойных заболеваний, несвоевременное выявление и лечение заболевания приводят к гибели матери.

Ключевые слова: перитонит, хирургическое вмешательство, роды, плацента, патология, матка, плацента, аборт, озноб, плод, недоношенность.

Akusherlik peritonitining Infeksiya manbai bo`lib, ko`pincha bachadon hisoblanadi (tug`ruqda xorioamnionit, tug`ruqdan keyingi endometrit, kesarcha kesish jarrohligidan keyingi choklarning nosozligi). Infeksiya o`chog`i bo`lmish bachadonda infeksiyaning yashashi va ko`payishi uchun qulay sharoitlar mavjud bo`ladi, bular qon quyqalari, homila elementi oldiklari va h.k. Akusherlik peritoniti ko`pincha sust va yashirin kechadi, ayniqsa kesarcha kesish jarrohligidan keyingi peritonit.

Diagnostik qiyinchiliklar:

• Homiladorlik va tug'ruqdagi neyroendokrin o'zgarishlar, gumoral va hujayra immuniteti holati.

• Homiladorlik va tug'ruqdagi asoratlari.

• Jarrohlik amaliyotining o'sishi.

• EGK.

• Bakteriyalar assotsiatsiyasining mavjudligi (aerob va anaerob).

Akusherlik peritoniti **patogenezi** asosida:

Endogen intoksikatsiya, biologik-aktiv moddalar (histamin, serotonin, kinin) ta'siri, tomirlardagi tarkalgan o'zgarishlar, to'qima gipoksiyasi, gipovolemiya va almashinuvning o'zgarishi, MNS va miokardga patologik ta'siri, buyrak, jigar, oshqozon osti bezi va ingichka ichakdagi destruktiv o'zgarishlar yotadi.

Peritonit tasnifi (K.S.Simonyan bo'yicha) (1971):

1. Reaktiv faza

2. Terminal faza

3. Toksik faza

Peritonit variantlari

I Variant (30%) 12-24 soatdan so'ng kesarcha kesish operatsiyasi vaqtida homila pardasining infeksiyalanishi natijasida (xorioamnionit, uzoq muddat suvsizlik davri.) Infeksiya manbai bachadon bo'shlig'idagi sakpanma operatsiya vaqtida qorin bo'shlig'iga tushishi. (erta peritonit) operatsiyada xorioamnionit fonida.

Patologik simptomlar : 1 sutka oxirida yoki 2 sutka boshida avj oladi. Tana haroratining ko'tarilishi ($38-39^{\circ}\text{S}$), taxikardiya (120-140 zarba/min) qorin shishi. Reaktiv faza unchalik bilinmaydi. Toksik faza tez avj oladi. Umumiy ahvoli og'irlashadi, ichak falaji kuzatiladi, tili quruq, qusuq yashil va gemorragik massalar bilan septik shok, yurak-o'pka va buyrak yetishmovchiligi yuzaga keladi.

II. VARIANT (15%) 72 soatdan so'ng: operatsiyadan so'nggi davrdagi endometrit bilan bog'lik (ichakning baryer funksiyasi falaj hisobiga buzilganda kuzatiladi).

Umumiy ahvoli nisbatan qoniqarli, tana harorati $37,4-37,6^{\circ}\text{S}$, taxikardiya (120-140 zarba/min), ichak falaji erta paydo bo'ladi. Qorinda og'riqlar yo'q. Ko'ngil aynish va quşish kuzatiladi, qorni yumshoq, simptomlar qaytalanishi xos. Konservativ davoga qaramasdan 3-4 kun ichida bemorning ahvoli og'irlashadi va intoksikatsiya belgilari kuchayadi.

III. VARIANT (55%) operatsiyadan so'nggi 5-9 sutkasiga. Bachadonda choklar yetishmovchiligi fonidagi peritonit.

Ko'proq bu holat infeksiya bilan bog'liq, kam hollarda texnik kamchiliklar bilan bachadonni kesilganda burchaklarni noto'g'ri tikish bilan bog'liq klinika erta paydo bo'ladi. Birinchi sutkadan peritonit belgilari paydo bo'ladi. Ayol holati og'irlashadi. Qorin pastidagi og'riqlar bezovta qiladi. Taxikardiya, quşish, qorin shishi saqlanib turadi. Perkussiyada qorin bo'shlig'ida ekssudat aniqlanadi. Intoksikatsiya tez kuchayadi. Dunyoda akusherlik peritonitining ko'payishi yiringli-septik asoratlarning o'sishi bilan bog'liq.

• **Peritonitga olib keluvchi sabablar:**

- Homiladorlik asoratlari (kamqonlik, preeklampsiya, yo'ldoshning oldinda joylashishi)
- Qin biotsenozining o'zgarishi
- Tug'ruqning patologik kechishi(suvsiz davr, tug'ruqning uzoqqa cho'zilishi)
- Homiladorlik oxirida immunotanqisligi paydo bo'lishi.
- Tug'ruqda xorioamnionit.

Tug'ruqdan keyingi davrda peritonit paydo bo'lishining sabablari:

- Peritonitning harakteri va og'irlilik darajasi qorin bo'shlig'idagi mikroblarning miqdori, ularning virulentligi, patologik jarayonning tarqalganligi hamda organizm immun tizimining holati kabi bir qator omillarga bog'liq.
 - Endometrit, metrotromboflebit, parametrit va kesarcha kesish operatsiyasidan so'ng choklarning so'kilishi.
 - EGK (o'tkir appenditsit, ichak yoki siydk pufagi devori butunligining buzilishi, endogen infeksiya).

Ko'p hollarda peritonitda aralash turdag mikroflora aniqlanadi. Lekin ularning ichida ichak tayokchasi, stafilokokk, ko'k yiring tayokchasi va vulgar protey yetakchi o'rinni egallaydi. Bachadonga infeksiya kirishi uchun bachadon bo'shlig'idagi qon laxtalari, homila qoldiqlarining bo'lishi katta rol o'ynaydi. Bular mikroorganizmlarning o'sishi uchun qulay sharoit bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, homilador bachadon bakteriya, to'qima toksinlari uchun yuqori rezorbsion yuza bo'lib, ularning qonga to'g'ridan-to'g'ri o'tishiga sharoit bo'ladi.

Oqsil tabiatli toksinlar (polipeptidlar, to'qima proteazalari, bakteriyalar va ularning mahsulotlari), toksin- kristalloidlar (ammiak), biogen aminlar (histamin, serotonin, heparin) qonga so'rilib organizmda bir qator o'zgarishlarga olib keladi. Bu holat to'qimalarda metabolik jarayonning buzilishi, ularning parchalanishi va katabolizmi bilan kechib, bu o'z navbatida MNS, jigar, buyrak, miokard va boshka a'zolarga, xususan ichakning asab tizimiga patologik ta'sir ko'rsatadi. Natijada to'qimalarda almashinuv jarayonining pasayishi, yurak-tomir tizimi, nafas tizimi, gomeostaz buzilishlari kuzatiladi.

Bu mahsulotlarning toksik ta'siri natijasida oksidlanish- qaytarilish jarayoni buzilishi bilan kechadigan sirkulyator gipoksiya yuzaga keladi. Bunda indol tarkibli aminlar va tuzilishiga ko'ra sut kislotasiga yaqin S-polipeptidning almashinuv mahsuloti bo'lmish chala oksidlangan metabolitlarning yig'ilishi oqibatida anaerob faza ustun keladi.

Peritonit intoksikatsiyasining jadallahishi turli sabablar (toksinlar ta'siri, qon aylanish buzilishi, gipoksiya va b.) natijasida yuzaga keladigan jigarning zararsizlantirish funksiyasining pasayishiga olib keladi. Ko'p hollarda jigar yetishmovchiligi buyrak yetishmovchiligi bilan birga kechadi.

Peritonitda hujayralardan kaliyning ajralishi kuchayib, bevosita patologik jarayon zonasini tomon yo'nalishi kuzatiladi. O'z navbatida kaliy hujayra elementlarining parchalanishidan ajralib chiqadi, xususan qorin bo'shlig'inining ekssudatida ko'p miqdorda aniqlanadi (10 mmol/l gacha).

Chin kaliy yetishmovchiligi (uning eritrotsitlardagi kontsentratsiyasining pasayishi) umumiy adinamiyaga, MNT pareziga, bradioaritmiyaga, miokardning qisqarish xususiyati va yurak o'tkazuvchanligining buzilishiga sabab bo'ladi.

Peritonit terminal bosqichida oligouriya va buyrak yetishmovchiligining rivojlanishi kaliyning buyraklar tomonidan ekskretsiyasi buzilishiga hamda o'sib boruvchi giperkaliyemiyaga olib keladi, ammo eritrotsitlarda kaliyning kontsentratsiyasi o'zgarmagan holda past bo'ladi. Peritonitning patogenezida ichak parezi aloxida o'rinn egallaydi. Ichak qovuzloqlarining suyuqlik va gazlar bilan kengayib ketishi ularning harakat, sekretor, so'rish, almashinuv funktsiyasi buzilishiga, suvsizlanishiga sabab bo'ladi. Paralitik sekretsyaning oshib borishi bilan ingichka ichak bo'shlig'ida o'zida ko'p miqdorda oqsil, elektrolitlar, K-ionlarini saqlagan ma'lum hajmdagi suyuqlikning to'planishi va sekvestrlanishi kuzatiladi. Ichak bo'shlig'ida bosim oshib boradi, ichakning kengayishi va ichak devorining qon aylanishi buzilishi bo'ladi. Bu devor ishemiyasiga sabab bo'lib, parez holatini yanada kuchaytiradi. Natijada ichak devori mikroorganizmlar va toksinlar uchun o'tkazuvchan bo'lib qoladi. Diafragmaning yuqori turishi, uning kam harakatchanligi esa o'pka ventilyatsiyasini (bazal atelektazlar) va yurak faoliyatini yomonlashtiradi. Qorin pressi muskullarining immobilizatsiyasi yo'tal mexanizmining o'zgarishlariga olib keladi. O'sib boruvchi og'riqli sindrom, gipoventilyatsiya, vena-arterial shuntlash fonida respirator buzilishlar va organizmning gipoksiyasi kuchayib boradi. Hosil bo'ladigan gipoproteinemiya o'pkalar shishiga, ularning elastikligi pasayishiga, nafas faoliyati oshishiga sabab bo'ladi.

Yuqori isitma, total perspiratsiya, quşish natijasida suyuklikning ko'p miqdorda ajralishi avvalo aylanib yurgan qon hajmini, keyin esa yurakning zarb hajmi kamayishini va endotoksim shok rivojlanishini ta'minlaydi.

Bunda ayniqsa, mikrosirkulyatsyaning o'zgarishi, proteolitik fermentlar faolligining oshishi va koagulopatiya bilan kechuvchi tomir ichi qon ivishi yaqqol namoyon bo'ladi.

O'tkir peritonitning toksik fazasida organizm kislorodli rejimining o'zgarishi nafaqat yurak qon-tomir (gipovolemiya, toksik miokardit, qonning yuqori ivuvchanligi) va nafas yetishmovchiligi, balki gematologik buzilishlar (mikrosirkulyator sistemada sirkulyatsiya qiluvchi eritrotsitlar sekvestratsiyasi, gemoliz, to'qima kapillyarlarida gemoglobinning kislorodga bo'lgan talabi oshishi), bundan tashqari, energetik sarfning ortishi bilan aniqlanadi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, peritonitni davolashda kechiktirib bo'lmaydigan holatlardan biri bu ichaklar falajini zudlik bilan bartaraf qilishdir, chunki parez metabolik o'zgarishlar va mavjud gipoksiyani yanada chuqurlashtiradi hamda shu ishemiya (gipoksiya) natijasida yuzaga keluvchi ichak devorining hayotga layoqatliligining buzilishiga olib keladi.

O'z vaqtida peristaltikani tiklash buning oldini olishi mumkin, bundan tashqari, portal qon aylanish kuchayadi, natijada jigar funktsiyasi yaxshilanadi.

B.N.Syerov va b. (1984) kesarcha kesish operatsiyasi o'tkazilgan bemorlarda qorin bo'shlig'iga infeksiya tushishining 3 xil mexanizmini ko'rsatadilar.

Birinchi variantida peritonit kesarcha kesish vaqtida qorin pardaga infeksiya tushishi oqibatida (birga keluvchi xorioamnionitda, uzoq kechuvchi oralig'ida) infeksiya manbai bo'lib, operatsiya vaqtida qorin bo'shlig'iga tushgan bachadondagi hosilalar (erta peritonit) xizmat kiladi. Peritonitning klinik belgilari operatsiyadan 1-2 kun o'tgach, bachadonda choklar germetikligi saqlangan holda yuzaga keladi. Peritonitning rivojlanib ketishi natijasida ularning ikkilamchi yetishmovchiligi kelib chiqishi mumkin.

Kesarcha kesishdan so‘ng qorin bo‘shlig‘iga tushuvchi infeksiya manbai falaj natijasida toksin va bakteriyalarga nisbatan o‘tkazuvchanligi ortgan ichak devoridir. Bu faraz bundan 100 yil muqaddam bayon qilingan va keyingi izlanishlar natijasida bir necha bor ma‘qullangan. Ammo mikrobnинг qorin bo‘shlig‘iga tushishi peritonitning tipik ko‘rinishi bo‘lgan massiv ekssudat bilan kechadi, og‘ir funksional va metabolik o‘zgarishlar esa faqat ma‘lum sharoitlarda yuzaga keladi.

Peritonitning uchinchi va ko‘proq uchraydagan varianti bachadonda choklar yetishmovchiligi natijasida qorin bo‘shlig‘ining infeksiyalanishiga asoslangan. Akusherlik peritonitining klinik ko‘rinishi umumiyligini mahalliy o‘zgarishlarga asoslanadi. Akusherlik peritonitida mahalliy o‘zgarishlar kamroq rivojlangan va reaktiv faza intoksikatsion fazaga tezda o‘tib ketadi. Shuning uchun “erta” akusherlik peritonitida intoksikatsiya belgilari ustun bo‘ladi, psixomotor qo‘zg‘alish, chanqash, shilliq parda qurishi, taxikardiya, holsizlik. Bemor ahvolining og‘irligi Infeksiyaning virulentligi va poliorgan yetishmovchiligi sindromi rivojlanish tezligi bilan aniqlanadi, qisman uzoq davom etuvchi tug‘ruqlar natijasidagi gipovolemiya darajasiga, operatsiya jarayonida qon yo‘qotilishining og‘rishi, elektrolit va suyuklikning ko‘p miqdorda yo‘qotilishiga ham qaraladi.

Akusherlik peritoniti ikkinchi formasining klinik ko‘rinishida, avval ichaklar parezi ustunlik qiladi, tug‘ruqdan keyingi endometrit belgilari ikkinchi o‘rniga o‘tadi. Bemor ahvolining og‘irligi, ichak baryer funktsiyasining buzilishi va bachadondagi toksik mahsulotlarning rezorbsiyasi hisobiga o‘sib boruvchi intoksikatsiya belgilari bilan aniqlanadi. Bachadon choklar yetishmovchiligi natijasida infektion agentning qorin bo‘shlig‘iga tushishi orqali yuzaga keluvchi uchinchi formaning klinik ko‘rinishida mahalliy simptomatika yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Ichaklar falaji aniq rivojlanganda Schetkin-Blyumberg simptomi musbat bo‘ladi, “mushakli himoya”, qayt qilish, suyuq va tez-tez ich kelishi o‘tkir hid bilan, palpatsiyada aniq lokal og‘riqlar bo‘ladi. Lekin kompleks jadal terapiya fonida peritonitning klinik belgilari ko‘rinmasligi va uni faqat ”qaytuvchi” simptomatika yuzaga kelgach aniqlashimiz mumkin. Kesarcha kesishdan keyingi tarkok peritonitda kompleks jadal terapiya Kesarcha kesish operatsiyasidan keyingi yoyilgan peritonit bilan og‘igan bemorlarni davolash taktikasi uning shakli, kasallik kechishining og‘irligi va konservativ terapiyaning samaradorligiga bog‘liq. «Ert» peritonitda davolash taktikasi kompleks konservativ terapiya o‘tkazishga asoslanadi va faqatgina undan samara bo‘lmaganda hamda bemor ahvoli yomonlashishi (ichak falajining tuzalmasligi va paralitik ichak tutilishiga o‘tishi, qorin bo‘shlig‘ida ekssudat paydo bo‘lishi, taxikardiya, taxipnoe) jarrohlik operatsiyasini o‘tkazishga ko‘rsatma bo‘ladi. Peritonitning 2-variantida kompleks jadal terapiya bemorni operativ davolashga tayyorlash uchun o‘tkaziladi. Parezga qarshi ko‘pgina usullar (peridural anesteziya, tozalovchi huqna, sifonli huqna, umbritsit, kaliy xlor, serukal, simagel 10 ml dan har soatda 4 mahal ichishga) o‘tkaziladi. Peritonitning 3-variantida tezkor operativ davo o‘tkaziladi, bachadonni uning naylari bilan birga ekstirpatsiyasi, peritonitning reaktiv fazasida qorin bo‘shlig‘ini tikilmagan qin orqali va yon kanallarning pastki qismlaridan drenajlash, peritonitning intoksikatsiya fazasida esa qorin bo‘shlig‘ining yuqori sohalarini drenajlash va qorin bo‘shlig‘ini yuvish. Operatsiyaning maqsadi infeksiya manbaini, ya‘ni infeksiyalangan bachadonni yo‘qotish va qorin bo‘shlig‘ini drenajlashdir. Bachadon yuzasidagi choklar yetishmovchiligidagi bachadonni olib tashlash ayniqsa zarur. Ayni vaqtida ichaklar baryer funksiyasi buzilganida qorin bo‘shlig‘ini sifatli drenajlash ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi. Operatsiya

vaqtida jarroh ekssudatning tabiatiga ko'ra (seroz, fibrinoz yoki yiringli) va qorin bo'shlig'i zararlanishining tarqalgaligiga ko'ra (cheklangan, diffuz yoki to'liq) peritonitning shaklini aniqlashi lozim. Ko'pchilik hollarda kesarcha kesish operatsiyasidan keyin 4-kunga kelib yiringli ekssudat aniqlanadi va qorin pardaning zararlanishi ko'pincha diffuz bo'ladi. Peritonit shaklini aniqlash «qorin bo'shlig'i dializi»ni qo'llash muammosini xal qilish uchun zarur. Bu muolajani o'tqazish uchun ko'rsatma bo'lib total peritonit yoki peritonitning og'ir intoksikatsiya bilan kechuvchi shakli hisoblanadi. Kesarcha kesish operatsiyasidan keyingi peritonitni maxalliy davolash (bachadonni olib tashlash, qorin bo'shlig'ini, oshqozonni, ba'zi bemorlarda ichakni drenajlash, ileostomiya) bilan birga umumiy terapiyani ham o'tkazish lozim. Umumiyl terapiyaning maqsadi patofiziologik buzilishlar kompensatsiyasi va infeksiya hamda intoksikatsiyaga qarshi kurashishdir. Umumiyl terapiyani belgilovchi holatlarni ko'rib chiqar turib, davolash muolajalarining bajarilish ketma-ketligiga e'tibor bermay bo'lmaydi. Kesar kesish operatsiyasidan keyingi peritonitda oshqozon ichak traktida hech qanday destruktsiyalar bo'lmasanida, operativ davo shoshilinch ko'rsatmalarga ko'ra o'tkaziladi. Biroq u destruktiv appenditsit, oshqozon va ichaklar yarasi bilan chaqirilgan jarroxlik peritonitidan farkli o'laroq, bir necha soat bilan chegaralanmaydi. Shunga ko'ra, umumiyl terapiya operativ davodan oldin yoki u bilan birga olib borilishi lozim. Kompleks intensiv terapiya o'tqazishning asosi bo'lib, yo'naltarilgan ta'sirga ega bo'lgan qon o'mini bosuvchi eritmalarini va qonning kolloidosmotik xolati ko'rsatkichlarining ionotor nazorati ostida muvozatlangan ion tarkibga ega bo'lgan eritmalarini keng qo'llagan holda boshqariluvchi gemodilyutsiya metodi bilan amalgalashiriluvchi infuzion-transfuzion terapiya hisoblanadi. Katta mikdordagi suyuklikni (4-5 l) organizmga kiritish tezlashtarilgan diurez (kiritilgan har 1 l suyuqlikdan keyin 0,02 r furosemid, spazmolitik vositalar bilan birga) fonida o'tkaziladi.

Bir qator muolajalar mikrotsirkulyatsiyaning buzilishi va DVS sindromini yo'qotishga qaratiladi. Bu maqsadda sutkasiga 500 TB/kg (tana massasi) dan heparin, nikotin kislotasi - Zmg/kg dan, eufillin 10 mg/kg dan, reopoliglyukin 15 ml/kg dan, kontrikal-100 YeD/kg dan qo'llaniladi. Parenximatoz a'zolar funktsiyasini va to'qima metabolizmini yaxshilash maqsadida 1% li glyutamin kislotasi va koferment preparatlari kokarboksilaza, folat kislotasi, sirepar qo'llaniladi. Peritonitda endogen va ekzogen proteinazalarning esteraz faolligini tormozlovchi proteazalar ingibitorlarini qo'llash tavsiya etiladi. Proteazalar ingibitorlari - trasilol, kontrikal, gordoks qonda antigenlik xossasidan xoli bo'lgan turg'un nofaol komplekslar hosil qiladi va proteolitik fermentlarni katalitik faollikdan mahrum kiladi. Ularning davolovchi ta'siri kininogenezni tormozlash yo'li bilan amalgalashiriladi.

Immunoterapiya gammaglobulin, zardobli globulin, antisgafilokok plazma, vaktsina, immukoaktiv plazma, leykotsitar massa qo'llashni o'z ichiga oladi. Organizm himoya kuchlarini yaxshilash maqsadida biogen stimulyatorlar (dekaris, pentoksil, metiluratsil) qo'llanadi.

Antibakterial terapiyani bir vaqtning o'zida 2-3 ta preparat bilan o'tkazish kerak. Antibiotiklarga mikroflora sezgirligini hisobga olgan holda 10 kundan keyin almashtiriladi. Antibiotiklar sefalosporinlar (fortum 2 g dan har 8-12 soatda m/ora yoki t/i ra, siperinol, sefamed, sefamizin, megatsef 750 mg v/i 3 mahal kuniga 3-5 kun davomida), aminoglikozidlar (merkatsin, kanamitsin, gentamitsin), ftorxinolonlar(oflo) kiradi. Anaerob preparatlardan metrogil qo'llanadi.

Antibiotiklar bilan bir vaqtning o‘zida nitrofuran qatori preparatlari, zamburug‘ga qarshi preparatlari (fluzamed), kolibakterin kabi preparatlari buyuriladi.

Anaerob flora tomonidan chaqirilgan peritonitda kuchli antigipoksik, antiparetik va detoksikatsion ta’sir ko‘rsatuvchi giperbarik kislorodni qo‘llash maqsadga muvofiq.

Diagnoz qo‘yilgandan so‘ng operatav davoni hayotiy zarur bo‘lgan a’zolar funktsiyasini yo‘lga ko‘yish maqsadida kompleks davo bilan birgalikda olib borish lozim.

Umumiy og‘riqsizlantirish (intubatsiya, IVL) ostida operatsiya qilinadi (12 soat davomida konservativ davo effekti bo‘lmasa). Qorin oldingi devorida pastki o‘rta laparotomiya yo‘li qo‘llaniladi va qorin bo‘shlig‘ining sanatsiyasi va drenajlash bajariladi. Ekssudat bakterial ekmaga va antibiotiklarga sezgirlikka olinadi. Qorin bo‘shlig‘ini drenajlash (peritoneal dializ), yo‘g‘on ichak intubatsiyasi (ichak dekompressiyasi bajariladi).

Intensiv terapiya ko‘p komponentlar bilan olib boriladi. Diurez va qon biokimyoiy tekshiruvlari ostida olib boriladi (elektrolitlar, oksil, oqsil fraktsiyalari, mochevina, kreatinin, glyukoza, bilirubin va boshkalar). Suv-elektrolitlar almashinushi korrektsiyasi kaliy, kaltsiy va Ringer-Lokk suyukliklari bilan bajariladi. Shular bilan birgalikda volemik preparatlardan kolloid eritmalar reportan va sgabizol v/i yuboriladi.

Oqsil moddalardan: albumin, proteii, plazma, aminokislotalar aralashmalari (infuzol) qo‘llaniladi. Hammasi bo‘lib sutkada 3 l suyuqlik diuretiklar fonida va S V D tekshiruvi ostida olib boriladi. Infeksiyaga qarshi antibiotiklar qo‘llaniladi.

Qorin bo‘shlig‘iga merkatsil, kanamitsin 1 g dan 2 mahal sutkada qo‘llaniladi. AB terapiya fonida gormonal terapiya qo‘llaniladi (prednizolon, deksametazon). Oshqozon va ichaklar motor-evakuator funksiyasini yaxshilash maqsadida nazogastral zovid, peridural blokada qo‘llaniladi. Falajga: prozerin, 10% natriy xlorid 100,0 t/i tomchilab, serukal 2.0 m/o, kaliy xlorid 1% t/i, ubretid 1,0 m/o, gipertonik klizma, Ognev klizmasi (30,0 glitserin, 3% peroksidi, 10% natriy xlorid) yoki sifon klizma).

Vitaminoterapiya: B, C, E guruhlari.

Immunomodulyatorlar: T-aktivin, immunomodulin, timalin.

Desensibilizatsiya maqsadida: dimedrol, pipolfen, suprastin, kaltsiy xlor.

Yurak faoliyatiga: riboksin, korglyuqon, kokarboksilaza.

REFERENCES

1. Adams, N.P., Bestall, J.C., Jones, P., Lasserson, T.J., Griffiths, B., & Cates, C.J. (2008). Fluticasone at different doses for chronic asthma in adults and children. *Cochrane Database of Systematic Reviews* 2008, 4, CD003534. <https://doi.org/10.1002/14651858.CD003534.pub3>.
2. Campbell, J.R., & Palazzi, D.L. (2017). *Candida infections in children*. UpToDate. Retrieved 5 July 2021 from <https://www.uptodate.com/contents/candida-infections-in-children>.
3. Ericson, J., & Benjamin Jr, D.K. (2016). *Candida*. In R. Kliegman, J. St Geme, N. Blum, S. Shah, R. Tasker & K. Wilson (Eds), *Nelson textbook of pediatrics* (21st edn, pp. 1640-1642). Elsevier.
4. Gaensbauer, J., Nomura, Y., & Ogle, J.W. (2020). Infections: Parasitic and mycotic. In

- W. Hay, M. Levin, M. Abzug & M. Bunik (Eds), *Current diagnosis and treatment: Pediatrics* (25th edn, pp. 1291-1329). McGraw-Hill Education.
5. Oakley, A. (2003). *Candida*. DermNet NZ. Retrieved 5 July 2021 from <https://www.dermnetnz.org/topics/candida/>.
 6. Salokhiddinovna, H. Y. (2023). Morphological Features of the Human Body in Energy Drink Abuse. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(5), 51-53.
 7. Salokhiddinovna, X. Y. (2023). INFLUENCE OF EXTERNAL FACTORS ON THE MALE REPRODUCTIVE SYSTEM. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 3(10), 6-13.
 8. Djalilova, Z. (2023). THE USE OF LATIN TERMINOLOGY IN MEDICAL CASE. *Академические исследования в современной науке*, 2(14), 9-15.
 9. Valijonovna, O. M. (2023). Aseptic and antiseptic in therapeutic dentistry. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(10), 517-521.
 10. Valijonovna, O. M., & Bahodirovna, N. M. (2023). TREATMENT OF HYPERESTHESIA AFTER TEETH WHITENING. *Научный Фокус*, 1(1), 459-465.
 11. Dilmurodovna, T. D. (2023). MORPHOLOGICAL ASPECTS OF THE THYROID GLAND IN VARIOUS FORMS OF ITS PATHOLOGY. *American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences* (2993-2149), 1(8), 428-431.